

CERTIFICATE OF APPRECIATE



SCIENCE BOX

Nazarova Manzura Mustafo qizi

is recognition of the paper publication entitled

GLOBALLASHISH SHAROITIDA O'SMIRLARNING AXBOROT
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK
MEXANIZMLARI

Vol. 2 No. 3 (2022)

**ANALYTICAL JOURNAL OF EDUCATION AND
DEVELOPMENT (ISSN - 2181-2624)**

04.04.2022



Norov I.





GLOBALLASHISH SHAROITIDA O'SMIRLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Nazarova Manzura Mustafo qizi

Buxoro davlat universiteti, (Buxoro, O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashish sharoitida o'smirlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik mexanizmlari, yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari, yosh avlod tarbiyasi borasida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Globallashuv, axborot, yosh avlod, ta'lim, tarbiya, ommaviy madaniyat.

Bilamizki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'nnaviy salohiyatiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda yoshlar siyosati samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. YOshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi globallashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi, fikri kun sayin o'zgarib bormoqda.

Globallashuv kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik madaniy, axborot, iqtisodiy, nosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidir. Yer kurrasining turg'un transport marshrutlari bilan birlashtiriluvi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va hakozolar shakllanayotgan globallashuvning bosqichlaridir. O'tgan asrning oxiri bu jarayon misli ko'rilmagan darajada jadallahshuviga olib keldi va globallashuv davri nomini oldi. Shu xususda Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday fikr bildiradi: «Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda». Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir.

Bugungi kunda yoshlarni hayratlantirish, ularning ko'nglidan chuqur joy oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham qiyinlashib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, voqeahodisalardan tez xabardor bo'lishi bilan ham izohlanadi. Bu jarayonda biz qilishimiz lozim bo'lgan asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda sog'lom fikrlaydigan, Vatanimizni sevib, uni jondek asrab-avaylab xizmat qiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Agar biz bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimizning ma'nnaviyatiga,



ong-u shuuriga nisbatan bo'layotgan xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlаримизни о'з гирдобига тортib ketishi оқибатидаги ularning ota-onा, oila, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini о'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayoti bilan yashaydigan xudbin kimsaga аylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni har bir inson, har qaysi ota-onा, eng muhimmi, har qaysi yigit-qiz bilib olishi kerak.

Farzandning dunyoqarashi, maslak, qadriyat, e'tiqodlari asosan oila bag'rida tarkib topar ekan, shu sababli oilaga haqiqiy ma'naviyat qo'rg'oni, deya ta'rif beriladi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odimiylilik, mehr-oqibat, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi oljanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi". Zero, bolaning kelajagi ushbu maskanda qanday tarbiya olganligi, bola tarbiyasida ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday yondashuviga bog'liqdir. SHu nuqtai nazardan, tom ma'nodagi sog'lom bolani, barkamol shaxs, komil insonni shakllantirishda oila ijtimoiy institut sifatida bajaradigan vazifalarni boshqa biron bir tuzilma zimmasiga to'liq yuklab bo'lmaydi. Oilada inson eng avvalo, sog'-omon voyaga etadi, yaxshi xulq namunalarini o'zlashtiradi, o'zida maqsadga muvofiq shaxslararo munosabatlar ko'nikmalarini shakllantiradi. SHu bilan birga oila farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlashda hayot tajribalarini o'rgatish maskani sifatida betakror xizmat qiladi. Ammo bugungi globallashuv davrida, shiddatli zamonda farzandlarning sog'-omon yurishini ta'minlashning o'zigma etarli bo'lmay qoldi. Zamonga xos va mos yuksak ma'rifatli, bунyodkor, shijoatli avlodni tayyorlash zarurati jamiyat, eng avvalo, oila instituti zimmasiga g'oyat katta mas'uliyat yuklamoqda. "Hozirgi zamonda o'smirlar ongi, ruhiyatida ilgari kuzatilmagan qanday o'zgarishlar ro'y beryapti, mazkur o'zgarishlar qanday xarakterga ega (ijobiymi yoki salbiymi), agarda nojoiz ta'sirlarga berilayotgan yoshlар bo'lsa, buning sabablari nimada, ushbu ta'sirlarning oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?", - degan savollarga javob topish zaruriyati ham yuzaga keldi. Hozirgi kunda ko'pchilik axborot olish manbai sifatida murojaat qiladigan, hayotimizning ajralmas tarkibiy qismiga аylanib ulgurgan internet xususida ba'zan kishilar bir yoqlama fikr yuritayotganini kuzatamiz. Ayrimlar uning ijobiyl томонлари, imkoniyatlarini haddan tashqari yoqlab, ashaddiy tarafdar sifatida internetni qo'llab-quvvatlasalar, boshqalar esa ko'proq foydalanish jarayonida inson oladigan negativ, salbiy ta'sirlarga e'tibor qaratadilar.

Yoshlarda buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi hali mafkuraviy immunitet to'la shakllanmaganligini, ularning eshitgan yoki o'qigan ma'lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e'tibor qaratish zarur bo'lgan jarayondir. Bugungi tahlikali zamonda o'smirlar, yoshlarni internetning salbiy ta'siridan himoyalash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish zarur. Eng avvalo, me'yorga amal qilish kerak, ya'ni bolaning kompyuter oldida o'tkazadigan vaqtini belgilab, chegaralab berish lozim. Uning o'rniga turli badiiy, ilmiy kitoblarni o'qish, musiqa, sport bilan shug'ullanishga undash maqsadga muvofiq. SHu bilan birga, internetning ma'lum bir saytlari va portallariga kirishni chegaralovchi dasturlardan foydalanilgani ham ma'qul. Bu ishlarni amalga oshirish orqali internetning o'smirlar psixikasiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Afsuski, ma'lumotlarga qaraganda hozir dunyo bo'yicha kishilar orasida (katta yoshlarda ham, yoshlар, o'smirlar, bolalar o'rtasida ham) tajovuzkorlik ko'rsatkichi tobora oshib bormoqda. Ularning barchasi insonlarning psixik va psixoemotsional holatiga bosim qilish, kishilarni zimdan boshqarish, ularga axboriy-psixologik ta'sir o'tkazishning ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Odamlarning ong osti faoliyatiga



axboriy ta'sir o'tkazish ularda turli psixosomatik kasalliklar rivojlanishiga, tanada fiziologik va organik buzilishlar kuzatilishiga, shuningdek, hatto o'limgacha olib keladigan vaziyatlarni yaratishga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsga boshqalarning salbiy ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida axborot iste'moli madaniyati, mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish va rivojlantirish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani uzviy holda, birga olib borish zarur. Ta'lim berish jarayonida maqsadga muvofiq tarbiyalab borish, tarbiyalash jarayonida ta'limga oid ma'lumotlar, usullardan o'rinli foydalanish har doim ham dolzARB ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida asosiy e'tiborni talabalarda tanqidiy tafakkurning rivojlantirilishiga, shuningdek ularda axborotpsixologik xavfsizlikning ta'minlanganligi, psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganligiga qaratish darkor. Ayniqsa, yosh davrlari bilan bog'liq shaxs inqiroz holatlari mayjudligini ota-onalar inobatga olishlari, mazkur holatlar o'smirlik davrida alohida e'tibor talab qilishini bilishlari zarur. Globallashuv sharoitda farzandlarimiz tarbiyasini virtual olam ixtiyoriga berib qo'yish esa yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jamiyatimizning, mamlakatimiz fuqarolarining jismoniy, psixologik, axloqiy, ma'naviy, madaniy jihatdan sog'lom bo'lishi barchamizga bog'liqligini e'tibordan soqit qilmasligimiz zarur. Bunda esa albatta, oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik, fuqarolik institutlari hamkorligi kuchaytirib borilishi, barcha faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi muhim ahamiyatga egadir. bugungi kunda yoshlarni turli yet g'oyalar, virtual olamning salbiy ta'sirlaridan himoyalash e'tiborga molik, davlat siyosati darajasidagi masala ekanligidan kelib chiqib, bu yo'nalishdagi ishlarni susaytirmaslik, izchil va tizimli olib borish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish keng ilmiy jamoatchilik, ota-onalar va har bir ongli fuqaro oldida turgan dolzARB vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Nazarova, M. (2021). BOSHLANG_ ICH TA 'LIM O_ QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
2. Baxriyeva, N. (2020). СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
3. Nematova, R. R., & Narziyev, B. N. (2022). THE ROLE OF NATIONAL GAMES IN INCREASING THE PHYSICAL ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(1), 6-11.
4. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(2), 51-57.
5. Нематова, Р. Р. (2019). ХАРАКТЕРИСТИКА КОММУНИКАЦИИ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА. *Теория и практика современной науки*, (5), 449-451.
6. Худойкулова, Г. Б. (2019). Psychological mechanisms of the formation of interpersonal activity motivation for interactive activities in small groups. *Psiyologiya*, (1), 32-35.
7. Исматова, Д. Т. (2016). РОЛЬ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ. *NovaInfo. Ru*, 3(57), 556-560.
8. A'zamova, M. A., Hakimova, F. K., & Sirojov, S. F. O. G. L. (2022). Life strategies of modern youth. *Science and Education*, 3(2), 1067-1072.



9. Назарова, М. М. К. (2022). Профилактика девиаций в подростковый период. *Science and Education*, 3(2), 1306-1312.
10. Murtazoyevna, Q. D., & Jamilovna, A. Z. (2021). FEATURES OF EMOTIONS IN THE UPBRINGING OF CHILDREN. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 60-64.
11. Ахмедов, А. А., & Зикиряева, М. М. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. *Новый день в медицине*, (1), 151-154.
12. Izatovna, T. L., & Izatovna, T. S. (2021, February). PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY. In *E-Conference Globe* (pp. 98-104).
13. Baxriyeva, N. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
14. Исматова, Д. Т. (2022). Социально-психологические особенности отношений в молодой семье. *Science and Education*, 3(2), 1147-1154.
15. Кодирова, Д. М. (2022). Психологические аспекты формирования этических отношений у дошкольных детей. *Science and Education*, 3(2), 1161-1168.
16. Ganjiyev, F., & Kosimova, S. Heads Of Competence In Psychologically School Education.
17. ҲАКИМОВА, Ф. Х. Мослаша олмаслик хусусиятларининг мактабгача ва кичик мабтаб ёшидаги болаларда турли психологик қўринишлари. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (4), 86-88.
18. Zulfiddinovich, S. Z. (2022). IMPROVING THE SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT IN TROUBLED AND TROUBLED FAMILIES. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(03), 5-12.
- A'zamova, M. (2021). Mahallada psixologik xizmat ko'rsatishning empirik asoslari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
19. Ганджиева, Ф., & Кодирова, Д. (2020). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
20. Jamilovna, A. Z. (2021). PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 304-307.
21. Ахмедова, З. Ж. (2022). Трудности социальная адаптация студентов в вузе. *Science and Education*, 3(2), 1054-1059.